

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 217 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniebich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	



SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Jobborov Anvar Egamberdiyevich

DTPI, Registrator ofisi menejeri

Email: anvarjobborov78@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimining zamonaviy yondashuvlari, raqamli texnologiyalarni HR jarayonlariga integratsiya qilishning afzalliklari hamda Surxondaryo viloyati tashkilotlarida ushbu jarayonlarning amaliy holati tahlil qilinadi. Xodimlarni raqamli boshqarish orqali samaradorlikni oshirish, masofaviy ish formatlarini joriy etish, xodimlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, xodimlarni boshqarish, inson resurslari menejmenti, HR-texnologiyalar, masofaviy ish, innovatsion menejment, kompetensiya rivojlantirish, samaradorlik, tashkilotlarni boshqarish.

Abstract. This article examines modern approaches to employee management in the context of the digital economy, the advantages of integrating digital technologies into HR processes, and the practical implementation of these processes in organizations of Surxondaryo region. Recommendations are provided for increasing efficiency through digital management of personnel, implementing remote work formats, developing employees' digital competencies, and forming innovative management mechanisms.

Key words: digital economy, digital transformation, employee management, human resource management, HR technologies, remote work, innovative management, competence development, efficiency, organizational management.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы к управлению персоналом в условиях цифровой экономики, преимущества интеграции цифровых технологий в HR-процессы, а также практическая реализация этих процессов в организациях Сурхандарьинской области. Приводятся рекомендации по повышению эффективности через цифровое управление персоналом, внедрение дистанционных форм работы, развитие цифровых компетенций сотрудников и формирование инновационных механизмов управления.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, управление персоналом, управление человеческими ресурсами, HR-технологии, дистанционная работа, инновационный менеджмент, развитие компетенций, эффективность, управление организацией.

KIRISH

So'nggi yillarda global va milliy iqtisodiyotlarda raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashib, iqtisodiyotni tashkillashtirish hamda boshqaruv tizimlarida tub o'zgarishlarga olib kelmoqda. Surxondaryo viloyati hududida ham ushbu jarayonlar inson resurslarini boshqarish tizimiga yangi raqamli yondashuvlarni joriy etishni zarur qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot nuqtayi nazaridan dolzarb bo'lib, amaliy jihatdan ham hududda shakllanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mazkur yo'nalishga alohida e'tibor qaratilganidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son¹ qarori qabul qilindi. Unda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda elektron davlat xizmatlarini kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, davlat dasturi tasdiqlandi. Bu hujjatlar xodimlarni boshqarish

¹ <https://lex.uz/docs/-4800657>



sohasida innovatsion menejment, HR-texnologiyalar va raqamli transformatsiyani joriy etish bo'yicha muhim omil sifatida xizmat qiladi².

Maqolaning asosiy vazifasi — Surxondaryo viloyatidagi tashkilotlarda xodimlarni boshqarish tizimining raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday yangicha shakllar olishini, shuningdek, ushbu jarayonda innovatsion menejment yondashuvlari hamda HR-texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning maqsadi esa — hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy va strategik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Statistik ma'lumotlar mazkur mavzuning amaliy zaruratini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, Surxondaryo viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 2 877,1 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich viloyatda inson resurslariga bo'lgan bosim yuqoriligini anglatadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid davlat hujjatlarida belgilanganidek, raqamli infratuzilmani yaratish, elektron xizmatlar ulushini oshirish hamda xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar aynan shu hududda yuqori ahamiyat kasb etmoqda³.

Shu tarzda, raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish Surxondaryo viloyatida nafaqat tashkilot ichidagi boshqaruvni modernizatsiya qiladi, balki hududning iqtisodiy o'sishiga va raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur maqola aynan shu jarayonlarni tizimli tahlil qilib, natijada xodimlarni boshqarishning raqamli, innovatsion va samarali tizimini shakllantirish yo'lida aniq tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat global, balki mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham keng o'rganilmoqda. Xorijiy adabiyotlarda ushbu mavzu bir nechta asosiy yo'nalishlarda tahlil qilingan. Masalan, "Digital Maturity in Transforming Human Resource Management in the Post-COVID Era" maqolasida HRM (inson resurslari menejmenti) jarayonlarida uchta asosiy tendensiya aniqlangan: raqamli transformatsiya va raqobatbardoshlik, innovatsion menejment orqali samaradorlikni oshirish hamda COVID-19 davriga moslashuvchan HR tizimlarini yaratish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xodimlarni boshqarish jarayonlarida raqamli vositalarni strategik qo'llash samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi (MDPI, 2023).

Germaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda esa kompaniyalarning 57 foizida asosiy HR jarayonlari (ishga qabul qilish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, ichki kommunikatsiya) raqamlashtirilgan bo'lsa-da, strategik qaror qabul qilish jarayonida raqamli vositalardan to'liq foydalanilmayotgani aniqlangan (Oxford Academic, 2022). Shu bilan birga, Rossiyada olib borilgan izlanishlarda xodimlarni boshqarishda raqamlashtirish jarayoni "tanlangan" yo'nalish emas, balki strategik bosqich sifatida qaralishi lozimligi ta'kidlanadi (HSE Foresight Journal, 2022).

O'zbekiston olimlari ham mazkur yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, "Human Capital and Digital Competency: Empirical Assessment of Readiness for Digital Economy in Uzbekistan" (2025) nomli maqolada mamlakat aholisining raqamli tayyorgarlik darajasi va kompetensiya ko'rsatkichlari tahlil qilinib, malaka bo'shliqlarining mavjudligi aniqlangan (InnoST, 2025). Shuningdek, "HRM and Digitalization: Modern Approaches and Opportunities" tadqiqotida O'zbekistonda bulut texnologiyalari, algoritmik menejment va raqamli monitoring vositalarini tatbiq etish orqali xodimlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirish tavsiya etilgan (Labour Economics, 2024).

Ham xorijiy, ham mahalliy tadqiqotlar natijasida bir qator muhim xulosalar shakllangan. Ularga ko'ra, xodimlarni boshqarishda strategik yondashuvni kuchaytirish, HR-texnologiyalarni kengroq qo'llash, xodimlarni raqamli kompetensiyaga tayyorlash, jarayonlarni integratsiyalashgan tizim asosida yo'lga qo'yish hamda infratuzilma va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash zarur. Bundan tashqari, xodimlarning ish qoniqishi, ruhiy salomatligi va raqamli stressni boshqarish kabi inson omillari ham inobatga olinishi lozim (Sadeghi, 2023).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish mavzusi nafaqat akademik, balki amaliy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar va mahalliy sharoitlarni solishtirgan holda, Surxondaryo viloyatidagi tashkilotlar uchun innovatsion menejment yondashuvlari, HR-texnologiyalarni tatbiq etish hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish orqali samarali boshqaruv tizimini yaratish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ilgari surilgan tavsiyalarni hududiy kontekstga moslashtirish orqali xodimlarni boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish hamda viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hissa qo'shish mumkin.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. // Lex.uz sayti. URL: <https://lex.uz/docs/5030957> (murojaat sanasi: 03.11.2025).

3 Surxondaryo viloyati hokimligi. (2023). Viloyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2020–2023 yillar hisoboti. Termiz: Viloyat hokimligi matbuot xizmati.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish jarayonida statistik tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, turli ilmiy adabiyotlar, xalqaro maqolalar va amaliy hisobotlar tahlili asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish omillari aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatida raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish jarayoni "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida izchil davom etmoqda. 2020-2023-yillar mobaynida 1 428,4 km optik tolali aloqa liniyalarining qurilishi va 104 ta yangi mobil baza stansiyasining o'rnatilishi natijasida yuqori tezlikdagi internet qamrovi 67 % dan 96,2 % ga yetkazilgan (Surxondaryo viloyati hokimligi, 2023). Ushbu infratuzilma yutuqlari xodimlarni boshqarish tizimini yanada samarali shakllantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Raqamli savodxonlik sohasida esa yangi o'sish imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda 87 400 nafar davlat xizmatchisining 41 % "Elektron hukumat" platformasidan to'liq foydalana olmoqda (O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmati agentligi, 2023). Bu ko'rsatkich yaqin yillarda doimiy o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslari orqali sezilarli oshishi kutilmoqda. Natijada, raqamli xizmatlardan foydalanish tezligi va aniqligi oshib, qaror qabul qilish jarayoni yanada tezlashadi.

Sohaviy tizimlarda raqamli tenglikni ta'minlash yo'nalishida ham katta imkoniyatlar mavjud. Masalan, qishloq xo'jaligida "Aqlli sug'orish" tizimi joriy etilgan 431 ta xo'jalikda bir xodim boshqaradigan yer maydoni 1,8 gektardan 3,2 gektargacha kengaygan (Surxondaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, 2023). Bu tajriba energetika sohasiga ham bosqichma-bosqich tatbiq etilishi rejalashtirilgan bo'lib, xodimlarning analitik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning raqamli ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish salohiyati kengayadi.

Monitoring va mas'uliyat tizimlari ham modernizatsiya bosqichida. "E-qaror" tizimidan foydalanuvchilar sonining ortishi bilan bir qatorda, real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlari kengaymoqda. 2023-yilda elektron raqamli imzodan foydalanish 70 % ga yetgani, bu jarayon yaqin yillarda barcha tashkilotlarda 100 % qamrovga erishish imkonini berishini ko'rsatmoqda.

Malaka oshirish tizimi esa inson resurslarini raqamli transformatsiyaga tayyorlashning eng muhim omiliga aylanmoqda. 2022-2023-yillarda 5 500 nafar xodim raqamli texnologiyalar bo'yicha o'qitilgan bo'lib, ularning 68 % i sertifikat olgan. Kutilishicha, amaliyotda bilimlardan foydalanish darajasi 2025-yilga borib 70-75 % ga yetadi, bu esa hududda raqamli iqtisodiyotning inson kapitali asosidagi rivojlanishini ta'minlaydi.

Prognoz jihatidan, 2025-2030-yillarda Surxondaryoda raqamli savodxonlik darajasi 85 % dan oshishi, "E-qaror" tizimi to'liq avtomatlashtirilishi, hamda xodimlar boshqaruvi jarayonlarida sun'iy intellektga asoslangan tahlil tizimlarining joriy etilishi kutilmoqda. Shu orqali viloyat raqamli boshqaruv samaradorligi bo'yicha mamlakatda yetakchi o'rinlardan birini egallashi ehtimol qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Sohalar bo'yicha raqamli vositalardan foydalanish darajasi (2023-yil)

Soha	Tizimdan foydalanuvchilar (%)	Analitik funksiyalarni biluvchilar (%)	Real vaqt monitoringi (%)
Qishloq xo'jaligi	68	52	48
Energetika	62	18	22
Savdo-sotiq	8	12	15
Davlat boshqaruvi	41	25	22

Manba: Surxondaryo viloyati soha boshqarmalari, 2023-2024

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi sohasi raqamli vositalardan eng faol foydalanuvchi tarmoqqa aylangan (68 %). Bu natija "Aqlli sug'orish" tizimlari, GPS nazorat mexanizmlari va avtomatlashtirilgan monitoring platformalarining joriy etilishi bilan bevosita bog'liq. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mehnat unumdorligini ikki baravar ko'paytirish imkonini bergan.

Energetika sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi 62 % ni tashkil etmoqda, bu sohada raqamli infratuzilma shakllanganini bildiradi. Shu bilan birga, analitik funksiyalarni bilish darajasi 18 % bo'lgani, xodimlarning malakasini oshirish orqali bu ko'rsatkichni yaqin yillarda 50 % gacha yetkazish imkoniyatini ochadi.

Savdo-sotiq sohasida esa raqamli texnologiyalar joriy etilishi hali boshlang'ich bosqichda (8 %). Shu sababli, bu yo'nalishda elektron savdo platformalarini kengaytirish va kichik biznes subyektlarini raqamli vositalardan foydalanishga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.



Umuman olganda, sohalar o'rtasida 60 % gacha farq mavjud bo'lsa-da, bu tafovut hududda integratsiyalashgan raqamli boshqaruv tizimini yaratish, tarmoqlararo tajriba almashinuvini kuchaytirish va yagona raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali tezlik bilan qisqaradi. Shu yo'sinda Surxondaryo viloyati raqamli iqtisodiyotning kompleks modeli sifatida mamlakat miqyosida ilg'or namuna bo'lishi prognoz qilinadi (2-jadval).

1-jadval. Sohalar bo'yicha raqamli vositalardan foydalanish darajasi (2024-yil)

Soha	Tizimdan foydalanuvchilar (%)	Analitik funksiyalarni biluvchilar (%)	Real vaqt monitoringi (%)
Qishloq xo'jaligi	72	58	54
Energetika	68	26	30
Savdo-sotiq	15	18	22
Davlat boshqaruvi	48	32	28

Manba: Surxondaryo viloyati soha boshqarmalari va Raqamli texnologiyalar vazirligi, 2024

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda raqamli vositalardan foydalanish darajasi barcha sohalarida o'sishda davom etgan. Bu holat "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasining hududiy ijro bosqichida erishilgan samarali natijalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sohasi yetakchilikni saqlab qolgan: tizimdan foydalanish darajasi 68 % dan 72 % gacha (+4 %) oshgan, analitik funksiyalarni bilish ko'rsatkichi 52 % dan 58 % gacha (+6 %), real vaqt monitoringi esa 48 % dan 54 % gacha (+6 %) ko'tarilgan.

Ushbu ijobiy dinamikaga, avvalo, "Aqlli sug'orish" texnologiyalari, GPS va IoT tizimlarining kengaytirilishi hamda fermerlar uchun majburiy o'quv dasturlarining joriy etilishi sabab bo'lgan. Buning natijasida qishloq xo'jaligi subyektlarining boshqaruv samaradorligi oshib, inson resurslari faoliyatida raqamli yondashuvlarning amaliy ahamiyati yanada kuchaygan⁴.

Energetika sohasida raqamli transformatsiya jarayoni izchil va ijobiy yo'nalishda davom etmoqda. Tizimdan foydalanish darajasining 62 % dan 68 % gacha (+6 %) o'sishi, xodimlarning raqamli jarayonlarga faol integratsiyalashayotganini ko'rsatadi. Analitik funksiyalarni bilish darajasi 18 % dan 26 % gacha (+8 %) oshgani esa sohaga sun'iy intellekt elementlarini tatbiq etish samaradorligini tasdiqlaydi. Real vaqt monitoringi ko'rsatkichi 22 % dan 30 % gacha (+8 %) ko'tarilgani natijasida, energiya sarfi va tarmoqlar samaradorligi ustidan nazorat sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu yutuqlar, birinchi navbatda, avtomatlashtirilgan hisoblagichlar sonining 94 178 tadan 118 500 taga yetkazilgani va xodimlar uchun o'tkazilgan AI-treninglarning amaliy natijalarini ifodalaydi. Prognozlarga ko'ra, 2026-yilga borib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 80–85 % darajaga chiqadi.

Savdo-sotiq sohasida ham ijobiy dinamikaga erishilgan. Raqamli tizimlardan foydalanish 8 % dan 15 % gacha (+7 %) oshgani, analitik funksiyalarni bilish 12 % dan 18 % gacha (+6 %) ko'tarilgani, hamda monitoring darajasi 15 % dan 22 % gacha (+7 %) o'sishi ushbu yo'nalishda raqamli infratuzilmaning shakllanayotganini ko'rsatadi. "E-auksion" va "E-savdo" platformalarining faol rivojlanishi natijasida savdo jarayonlari shaffofligi ortmoqda. Kelgusi bosqichda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun elektron tijorat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bu raqamlar 2027-yilgacha 30–35 % darajaga yetkazilishi kutilmoqda.


Davlat boshqaruvi sohasida ham barqaror va tizimli o'sish kuzatilmoqda. "E-qaror" tizimi joriy etilishi natijasida tizimdan foydalanish 41 % dan 48 % gacha (+7 %), analitik funksiyalarni bilish 25 % dan 32 % gacha (+7 %), monitoring darajasi esa 22 % dan 28 % gacha (+6 %) oshdi. Elektron raqamli imzodan foydalanish ko'rsatkichining 70 % dan 82 % gacha ko'tarilishi boshqaruv jarayonlarining tezligi va ishonchligini oshirgan. Yaqin istiqbolda raqamli boshqaruvning avtomatlashtirilgan komponentlari — AI-assistentlar, elektron hujjat aylanishi va yagona davlat ma'lumotlar bazalari orqali bu sohada 2028-yilgacha to'liq raqamli integratsiyaga erishish prognoz qilinmoqda.

Umuman olganda, barcha tarmoqlarda kuzatilayotgan raqamli o'sish tendensiyasi Surxondaryo viloyatini "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasining ilg'or mintaqalaridan biriga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda (1,2-rasm).

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmati agentligi. (2023). *Davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligi darajasi bo'yicha hududiy tahlil* (2023 yil). Toshkent.




The dynamics of ICT infrastructure development in 2016-2020



1-rasm. 2016-2020-yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) infratuzilmasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Dynamics of growth of key economic indicators in the ICT 2016-2020



2-rasm. 2016-2020-yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) infratuzilmasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Surxondaryo viloyatida raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar bir-biriga bog'langan ijobiy natijalar zanjirini shakllantirgan. 2020-2023-yillar davomida infratuzilmaning kengaytirilishi natijasida yuqori tezlikdagi internet qamrovi 67 % dan 96,2 % gacha oshgan, bu esa elektron hujjat aylanishi va real vaqt monitoringini ta'minlash uchun zarur texnik bazani yaratgan. Mazkur baza asosida "E-qaror" tizimida 2021-yildagi 4 012 ta hujjatdan 2023-yilda 12 847 taga o'sish kuzatilgan bo'lib, bu 267 % o'rtacha yillik o'sishni tashkil etadi. Shunga qaramay, 28 % hujjatlarda qo'lda tuzatish talab etilgani xodimlarning raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi.



Infratuzilma va elektron tizimlarning rivojlanishi mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, "Aqlli sug'orish" tizimi joriy etilgan xo'jaliklarda bir xodim boshqaradigan yer maydoni 1,8 gektardan 3,2 gektargacha (78 % o'sish) kengaygan, suv sarfi esa 28 % ga qisqargan. Ushbu natijalar raqamli monitoring va avtomatlashtirish texnologiyalarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi, chunki xodimlar real vaqt ma'lumotlari asosida tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Natijada, raqamli monitoring joriy etilgan tuman hokimliklarida qaror qabul qilish muddati 4,1 kundan 1,7 kungacha qisqargan (58 % tezlashuv), bu esa davlat xizmatlari samaradorligining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Biroq, ushbu zanjirning eng zaif bo'g'ini — xodimlarning malaka darajasi bo'lib qolmoqda. 2022–2023-yillar davomida 5 500 nafar xodim raqamli texnologiyalar bo'yicha o'qitilgan bo'lsa-da, ulardan faqat 68 % i sertifikat olgan va o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash darajasi 45 % ni tashkil etgan. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonida inson omilining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi⁵. Ushbu holat infratuzilma va tizimlarning yuqori darajada rivojlanishi natijasida inson omilining raqamli transformatsiyaga bosqichma-bosqich moslashayotganini ko'rsatadi. Natijalar zanjiri quyidagicha shakllanmoqda: infratuzilma rivoji → elektron tizimlar faollashuvi → mehnat unumdorligi o'sishi → qaror qabul qilish tezlashuvi → malaka oshirish dasturlari orqali tizim samaradorligining kengayishi. Shu yo'sinda, raqamli savodxonlikni oshirish va amaliy yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yanada tizimli tashkil etish orqali yaqin yillarda tizimning to'liq potensialidan foydalanish imkoniyati yuzaga chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyatida raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida infratuzilma, elektron hujjat aylanishi, mehnat unumdorligi va qaror qabul qilish tezligi yo'nalishlarida barqaror va izchil yutuqlarga erishildi. Yuqori tezlikdagi internet qamrovi 67 % dan 96,2 % ga yetgani, "E-qaror" tizimida elektron imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar sonining 4 012 tadan 12 847 tagacha oshgani, shuningdek, qishloq xo'jaligi xodimlarining boshqaruv samaradorligi 78 % ga, qaror qabul qilish tezligi esa 58 % ga yaxshilangani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Hozirgi bosqichda inson kapitalini rivojlantirish raqamli transformatsiyaning asosiy drayveriga aylanmoqda. Raqamli savodxonlik darajasi 41 % dan 48 % gacha o'sdi, bu esa o'qitish va malaka oshirish dasturlari samaradorligini ko'rsatadi. Sohaviy tafovutlar bosqichma-bosqich qisqarib, savdo-sotiq yo'nalishida ham raqamli yechimlardan foydalanish ulushi ortmoqda. Amaliy qo'llash darajasining 45 % ga yetgani hamda real vaqt monitoringining 28 % tashkil etishi kelgusida integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga o'tish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shu yo'sinda, 2025–2030 yillar oralig'ida inson omilining raqamli kompetensiyalar orqali tizimning to'liq potensialini ochib berishi prognoz qilinmoqda.

Tizimning samaradorligini 2030-yilgacha 1,5–2 baravar oshirish maqsadida bir qator amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Avvalo, majburiy raqamli malaka oshirish dasturini joriy etish nazarda tutilgan bo'lib, har yili 10 ming nafar xodim — shundan 4 ming nafari davlat xizmati, 3 ming nafari qishloq xo'jaligi, 3 ming nafari esa energetika va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar — "Raqamli savodxonlik va amaliy qo'llash" dasturi asosida o'qitiladi. Shu bilan birga, sertifikatsiya tizimi yo'lga qo'yilib, sertifikatsiz xodimlarning ishga qabul qilinishi yoki lavozimga ko'tarilishi cheklanadi. Ushbu chora orqali 2027-yilgacha raqamli savodxonlik darajasini 75 %, amaliy qo'llash ko'rsatkichini esa 80 % darajaga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Keyingi bosqichda sohaga oid integratsiyalashgan platforma yaratish ko'zda tutilgan. "Yagona raqamli boshqaruv platformasi" doirasida "E-qaror", "Aqlli sug'orish", "E-auksion" hamda "Avtomatlashtirilgan hisoblagichlar" tizimlarini yagona raqamli muhitga birlashtirish taklif etiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi analitik modul qo'shib, u xodimlar uchun avtomatik hisobotlar hamda qaror variantlarini shakllantiradi. Mazkur yo'nalish bo'yicha 2026-yilgacha real vaqt monitoringini 70 % darajaga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan.

Monitoring va rag'batlantirish tizimi ham takomillashtiriladi. Har chorakda xodimlarning faoliyati KPI asosida baholanib, raqamli faollik reytingi yuritiladi. Baholashda tizimdan foydalanish foizi, xatolik darajasi va tezkorlik ko'rsatkichlari inobatga olinadi. Eng yuqori natija ko'rsatgan 10 % xodimlarga 20–30 % miqdorida ustama to'lov berish mexanizmi joriy etiladi. Bu orqali xodimlarning tizimdan faol foydalanish darajasi 90 % ga yetkazilishi kutilmoqda.

Takliflarning yana bir muhim yo'nalishi — mahalliy budjet va xalqaro grantlarni jalb etishdir. 2025–2027-yillar oralig'ida jami 15 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi, shundan 40 % i mahalliy budjetdan, 60 % i esa UNDP va Turkiya grantlaridan shakllantiriladi. Ushbu mablag'larning 5 milliard so'mi o'quv markazlarini jihozlashga, 7 milliard so'mi yagona platformani ishlab chiqishga, 3 milliard so'mi esa xodimlarni rag'batlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

⁵ UNDP O'zbekiston vakolatxonasi. (2024). "Raqamli transformatsiya va kadrlar malakasini oshirish" loyihasi bo'yicha Surxondaryo viloyatidagi natijalar hisoboti. Toshkent: UNDP nashriyoti.



Ilmiy-amaliy monitoring doimiy asosda olib boriladi. Har yili Surxondaryo viloyati raqamli boshqaruv indeksini hisoblash amaliyoti joriy etilib, unda infratuzilma, savodxonlik va samaradorlik ko'rsatkichlari baholanadi. Ushbu indeksni 2024-yildagi 58 balldan 2030-yilga borib 90 ball darajasiga yetkazish rejalashtirilgan.

Takliflar to'liq amalga oshirilganda, Surxondaryo viloyati 2030-yilga kelib raqamli iqtisodiyotdagi ulushini 20 % ga oshiradi, xodimlar samaradorligi esa 1,8 baravar ko'tariladi. Natijada viloyat mamlakatning janubiy raqamli innovatsion markaziga aylanish salohiyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. // Lex.uz sayti. URL: <https://lex.uz/docs/5030957> (murojaat sanasi: 03.11.2025).
2. Surxondaryo viloyati hokimligi. (2023). Viloyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2020–2023 yillar hisoboti. Termiz: Viloyat hokimligi matbuot xizmati.
3. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). "E-qaror" tizimining 2023 yil faoliyati statistik tahlili. Toshkent: Vazirlik nashriyoti.
4. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi. (2023). "Aqlli sug'orish" tizimi joriy etilgan xo'jaliklarda mehnat unumdorligi o'sishi bo'yicha hisobot. Termiz.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmati agentligi. (2023). Davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligi darajasi bo'yicha hududiy tahlil (2023 yil). Toshkent.
6. Surxondaryo viloyati energetika boshqarmasi. (2023). Avtomatlashtirilgan hisoblagichlar va xodimlar faoliyati monitoringi hisoboti. Termiz.
7. Surxondaryo viloyati iqtisodiy rivojlanish boshqarmasi. (2024). "E-auksion" va "E-savdo" tizimlarida xodimlar ishtiroki statistikasi (2023–2024). Termiz.
8. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida Surxondaryo viloyatidagi ta'lim muassasalari qamrovi hisoboti. Toshkent.
9. Surxondaryo viloyati prokuraturasi. (2024). Raqamli monitoring orqali aniqlangan qonunbuzarliklar statistikasi (2023 yil). Termiz.
10. UNDP O'zbekiston vakolatxonasi. (2024). "Raqamli transformatsiya va kadrlar malakasini oshirish" loyihasi bo'yicha Surxondaryo viloyatidagi natijalar hisoboti. Toshkent: UNDP nashriyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
